

**“ABILITATSION PEDAGOGIKA VA SOHALARARO YONDASHUV:
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI JAMIYATGA
INTEGRATSIYA QILISHNING ZAMONAVIY YO‘LLARI”**

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Logopediya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ibragimova Durdona Dilmurod qizi

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Azimova Dilnoza Sherzodvna

Annotatsiya: Mazkur maqolada abilitatsion pedagogikaning mohiyati, uning sohalararo xususiyatlari hamda imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga integratsiya qilishning zamonaviy yo‘llari tahlil qilinadi. Abilitatsion pedagogika insonning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, u tibbiyot, psixologiya, logopediya, defektologiya va ijtimoiy pedagogika bilan chambarchas bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Tadqiqot davomida o‘qituvchining individual yondashuvi, inklyuziv ta‘lim jarayonida ota-ona hamkorligi va zamonaviy pedagogik metodlarning qo‘llanilishi alohida ta‘lim ehtiyojiga ega bolalarning shaxsiy rivojlanishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Abilitatsion pedagogika, sohalararo yondashuv, inklyuziv ta‘lim, maxsus pedagogika, integratsiya, imkoniyati cheklangan bolalar, psixologik qo‘llab-quvvatlash, logopediya, defektologiya, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность абилитационной педагогики, её междисциплинарные характеристики и современные пути интеграции детей с ограниченными возможностями в общество. Абилитационная педагогика направлена на развитие имеющихся способностей человека и обеспечение его социальной адаптации, тесно взаимодействуя с медициной, психологией, логопедией, дефектологией и социальной педагогикой. В ходе исследования показано, что индивидуальный подход учителя, сотрудничество с родителями в процессе инклюзивного образования и применение современных педагогических методов являются важными факторами в личностном развитии и повышении самооценки детей с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: Абилитационная педагогика, междисциплинарный подход, инклюзивное образование, специальная педагогика, интеграция, дети с ограниченными возможностями, психологическая поддержка, логопедия, дефектология, социальная адаптация.

Abstract: This article analyzes the essence of habilitation pedagogy, its interdisciplinary characteristics, and modern ways of integrating children with disabilities into society. Habilitation pedagogy is aimed at developing an individual's existing potential and ensuring their social adaptation, operating in close connection with medicine, psychology, speech therapy, defectology, and social pedagogy. The research demonstrates that the teacher's individual approach, parental collaboration in the process of inclusive education, and the application of modern pedagogical methods are crucial factors in the personal development and boosting the self-confidence of children with special educational needs.

Keywords: Habilitation pedagogy, interdisciplinary approach, inclusive education, special education, integration, children with disabilities, psychological support, speech therapy, defectology, social adaptation.

Kirish:

Abilitatsion pedagogika – bu maxsus pedagogikaning yangi tarmoqlaridan biri bo'lib, insonning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, qobiliyatlarini ochish va jamiyatga moslashuvini ta'minlash bilan shug'ullanadi. "Abilitatsiya" tushunchasi "qayta tiklash" (rehabilitatsiya)dan farq qilib, insonning hali shakllanmagan yoki rivojlanmagan imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida alohida ta'limga ehtiyojli bolalar uchun katta e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, inklyuziv ta'lim barcha bolalarni ehtiyojini hisobga olgan holda eng insonparvar ta'lim sifatida ular uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Bizga ma'lumki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, maktab ostonasiga qadam qo'ygan bolajonda ilk taassurotni "Mehribon ona" qiyofasida gavdalantiradi.

Aksariyat bolajonlar maktab tomon ko'kka qanot qoqib parvoz etayotgan qushdek uchib keladi.

Bu jarayonda alohida ta'lim ehtiyojli bolalarni maktabga qabul qilish unga e'tibor berish esa yanada mas'uliyatlidir.

Mazkur maqolada men inklyuziv sinf o'qituvchisi sifatida o'z ish tajribam bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Avvalo inklyuziv ta'limga jalb etilgan bola o'qituvchida o'z onasidek mehribonlik, shirinso'zlik hislatlarini ko'rishi kerak.

Buning uchun esa, o'qituvchi bolaning oilasi bilan yaqindan tanishib oladi.

O'qituvchi bu borada ota-onalardan oiladagi bolalar soni, ushbu bolalar ta'lim ehtiyoji bo'yicha qay darajada, odatda, bolalar sinfda va tanaffus vaqtlarida nima bilan shug'ullanadilar, sinfda o'zini tutish qoidalari, o'qituvchi qanday usullarni qo'llaydi, sinfdagi bolalarning munosabatlari, qanday uy vazifalari berilishi haqidagi dastlabki ma'lumotni oladi.

Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarni inkluziv ta'limi dasturi ishlab chiqiladi.

Birinchi navbatda alohida ehtiyojli bolada o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiruvchi mashg'ulotlarni olib boriladi.

O'qituvchi bola uchun samarali o'quv material va usullarini tanlab olishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek rasmlar, raqamli va tarmoq resurslaridan, o'quv filmlaridan, audio yozuvlardan ham foydalanishi mumkin.

Mashg'ulotlarga materiallarni tayyorlashda bolaning qiziqishlari, bajara olish imkoniyatlari hisobga olinadi.

Mashg'ulotlar davomida alohida ta'lim ehtiyojli boladan vazifalarni sinfdagi boshqa bolalardan qabul qilingani kabi qabul qilinadi va ruhlantiriladi.

Yutuqlarini va kamchiliklarini ham o'z o'rnida tushuntiriladi.

Bunday jarayon alohida ehtiyojli bolada o'ziga bo'lgan ichonch tuyg'usini shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Shaxs shakllanishiga oid turli yondashuvlar.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

1. Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv - inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi - qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt - biologik, ijtimoiy, psixologik va yaxlit yondashuv qaror topgan.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi.

Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi.

Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi.

Abilitatsion pedagogikaga hissa qo'shgan olimlar:

1. Lev Vygotskiy (1896–1934)

- Defektologiya faniga asos solgan.
- Bola rivojlanishida ijtimoiy muhit va nutqning ahamiyatini ko'rsatib bergan.
- Abilitatsion pedagogikaning psixologik asoslarini yaratgan.

2. Aleksandr Luriya (1902–1977)

- Neyropsixologiya asoschisi.
- Miya faoliyati va nutq buzilishlarini chuqur o'rgangan.
- Reabilitatsiya va abilitatsiyada miyaning kompensator imkoniyatlarini aniqlagan.

3. Sergey Rubinshteyn (1889–1960)

- “Shaxs faoliyat orqali rivojlanadi” nazariyasini ishlab chiqqan.
- Bolaning rivojlanishida faoliyatning ahamiyatini ko'rsatgan.
- Abilitatsion yondashuvda faoliyat asosida rivojlantirish tamoyilini kiritgan.

4. Maria Montessori (1870–1952)

- Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash uchun Montessori metodini yaratgan.
- Bolaga mustaqil ishlash va erkin tanlash imkoniyatini bergan.
- Abilitatsiyada bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan.

5. Jan Itard (1774–1838)

- Maxsus pedagogikaning tajribaviy asoschisi sifatida tanilgan.
- Yovvoyi bola (Victor Aveyronlik) bilan ishlash orqali maxsus ta'lim metodlarini sinab ko'rgan.

6. Edouard Seguin (1812–1880)

- Aqliy nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratgan.
- Sensor tarbiyani rivojlantirish tamoyilini ishlab chiqqan.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir.

Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi.

Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab.

Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Abilitatsion pedagogika faqat bitta yo'nalish bilan cheklanib qolmaydi.

U turli fan va yo'nalishlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Shu sababli uni "sohalararo pedagogika" deyish mumkin.

1. Tibbiyot – shifokorlar bilan hamkorlikda sog'liqni qo'llab-quvvatlash, davolash jarayonini yengillashtirish.

2. Psixologiya – bola yoki kattalarning ichki dunyosini tushunish, psixologik qo'llab-quvvatlash.

3. Ijtimoiy pedagogika – jamiyatga moslashuv, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish.

4. Logopediya – nutq buzilishlarini tuzatish, muloqotga tayyorlash.

5. Defektologiya – eshitish, ko'rish, harakatlanishida nuqsoni bo'lganlar bilan ishlash.

6. Pedagogika umumiy nazariyasi – ta'lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni ta'minlash.

Xulosa:

Biz kuzatuvlarimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, abilitatsion pedagogika bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda eng samarali yo'nalishlardan biridir. U faqat maxsus pedagogika doirasida emas, balki tibbiyot, psixologiya, logopediya, defektologiya va ijtimoiy pedagogika bilan hamkorlikda olib borilgandagina yuqori natijalar beradi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki:

Abilitatsion pedagogika bolaning mavjud imkoniyatlarini ochishga yordam beradi,

Inklyuziv ta'lim esa alohida ehtiyojli bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi, O'qituvchi va ota-onaning hamkorligi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi, O'quv jarayonida individual yondashuv va zamonaviy metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarixiy va zamonaviy olimlarning qarashlari (Vygotskiy, Luriya, Rubinshteyn, Montessori, Itard, Seguin) abilitatsion pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini boyitib, uni yanada mukammal tizim sifatida shakllantirganini ko'rdik.

Demak, abilitatsion pedagogika va sohalararo yondashuvni uyg'unlashtirish orqali imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, ularni mustaqil va faol shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L. S. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
2. Luriya A. R. Osnovy neyropsixologii. – Moskva: Izd-vo MGU, 1973.
3. Rubinshteyn S. L. Osnovy obshchey psixologii. – Sankt-Peterburg: Piter, 2000.
4. Montessori M. The Montessori Method. – New York: Schocken Books, 1964.
5. Itard J. M. G. The Wild Boy of Aveyron. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1962.
6. Seguin E. Idiocy: and its Treatment by the Physiological Method. – New York: William Wood & Co., 1866.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 1992.
8. Ibn Sino A. Tib qonunlari (Al-Qonun fi-t-tibb). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
9. Komenskiy Ya. A. Didaktik asoslar. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4860-son qarori. – Toshkent, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.